



**TIBBIY MULOQOTDA SALOMLASHISHNING
KOGNOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI**



Nafisa HAMROYEVA

Buxoro davlat universiteti

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

e-mail: n.n.hamroeva@buxdu.uz


Annotatsiya. *Nutqiy vaziyatga mos ravishda insonlar salomlashish, iltifot, kechirim so'rash, tabriklash, minnatdorchilik izhor qilish, xayrlashish singari turli xil nutqiy muloqot ko'rinishlaridan foydalanadilar va ularning har birida o'ziga xos va mos muomala shakllari mavjud. Maqolada tibbiy diskursda muloqotga kirishish bosqichiga oid kognitiv-semantik yondashuvlar haqida so'z boradi. Shuningdek, nutqiy muloqot ibtidosida (salomlashish-ko'rishish bosqichida) aks etadigan o'zbekona muloqot odobi tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *nutqiy muloqot, pragmatik sistema, diskurs, nutqning ibtidosi, xushmuomalalik, nutqiy etiket, tibbiy muloqot, tibbiy nutq birliklari.*

Muloqot insonlarning birgalikdagi harakat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan, aloqa almashish, bir-biriga ta'sir etish, boshqalarni tushinish, odamlar o'rtasida kontakt o'rnatish va rivojlantirish jarayonidir. Nutqiy muloqot o'ziga xos pragmatik sistemani tashkil etadi. Zamonaviy tibbiyotda shifokor va bemor o'rtasidagi samarali muloqot muolaja jarayonining ajralmas qismi sifatida qaraladi. Mazkur muloqot faqat klinik ma'lumot almashish bilan cheklanib qolmasdan, balki emotsional va ijtimoiy munosabatlar ifodasi sifatida ham namoyon bo'ladi. Ana shunday muloqotning muhim elementlaridan biri — bu salomlashishdir. U juda oddiy va tabiiy tuyulgani bilan, aslida kognitiv va pragmatik jarayonlarning murakkab tizimi sifatida namoyon bo'ladi.

Salomlashish shifokor va bemor o'rtasidagi aloqani boshlovchi fatik akt bo'lib, uning ortida samimiylilik, hurmat, ishonch uyg'otish, do'stona muhit yaratish kabi niyatlar yotadi. Ushbu maqolada tibbiy muloqotda salomlashishning kognopragmatik xususiyatlari, ya'ni bu nutqiy akt orqali inson qanday ma'nolarni anglaydi, qanday psixologik ta'sir ko'rsatiladi va muomala maqsadiga qanday erishiladi, shuningdek, uning ijtimoiy-madaniy konteksta qanday shakllanishi ilmiy tahlil qilinadi.

Bugungi kunda tibbiy xizmatlar sifatini oshirishda shifokor va bemor o'rtasidagi muloqot madaniyatiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, bemorning psixologik holati, uning shifokorga bo'lgan ishonchi va muolajalarga munosabati ko'p jihatdan muloqot jarayoni qanday boshlanishiga, ya'ni salomlashish kabi fatik aktlarning qanday ijro etilishiga bog'liq bo'ladi. Salomlashish shifokor va bemor o'rtasidagi muloqotning boshlang'ich nuqtasi sifatida faqat rasmiy nutqiy odat emas, balki ichki niyat, munosabat va hurmatning kognitiv-pragmatik ifodasidir. Shu jihatdan tibbiy muloqotda





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

salomlashishning kognopragmatik xususiyatlarini o'rganish nafaqat lingvistik nuqtai nazardan, balki tibbiy etika, psixologiya va kommunikativ madaniyat nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur mavzudagi tadqiqotlar tibbiy sohadagi muloqot sifatini yaxshilashga, bemorlarga nisbatan munosabatning insoniy va madaniy jihatlarini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Fatik muloqot, xususan, salomlashishning lingvistik, pragmatik va ijtimoiy xususiyatlari turli ilmiy yo'nalishlarda keng o'rganilgan. Jumladan, J. Xolms, A. Kendon va A. Ferber kabi tadqiqotchilar salomlashishning kommunikativ funksiyalari va ijtimoiy rolini ko'rsatib o'tganlar. Shu bilan birga, N.D. Arutyunova o'z ishlarida fatik muloqotni shaxslararo munosabatlarning mustahkamlanishiga xizmat qiluvchi mexanizm sifatida tavsiflaydi.

Shuningdek, o'zbek tilida fatik nutq turlarining madaniy-ma'naviy asoslari bo'yicha Sh. Iskandarova, S.M.Mo'minov, Q.Rasulov, H.Turdieva kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda milliy nutq etiketi, jumladan, salomlashishning an'anaviy modellari tahlil qilingan. Shavkat Nizomning "Sharq yuldizi" jurnali 2022-yil 1-sonida chop etilgan "Kovid bildn yuzma-yuz" qissasidagi quyidagi parchada hamshira qizning nihoyatda shirinso'zlik bilan bemorlarni kutib olganligi tasvirlanadi:

Ertasi ikkalasi poliklinikaga kelishdi.

Vaksina olinayotgan joyda bir necha erkak-ayol navbat kutar, yana bir nechalari zalni aylantirib qo'yilgan o'rindiqlarda o'tirishardi. Asqar Jamolni ko'rgan kechagi hamshira shoshib yaqinlashdi.

– Yangam ham keldilarmi? – so'radi u xursand bo'lib.

– Ha! Ana, kela solib o'tirib oldi – javob berdi Asqar Jamol boshini orqaga irg'ab. So'ng xotiniga murojaat qildi. – Vazira, qara!..

– Assalomu alaykum, yanga, – chopqillab uning yoniga bordi hamshira, – yaxshi keldingizmi?

– Rahmat. O'zingiz yaxshimisiz, Rayhon? – hol so'radi Vazira.

– Men yaxshiman. Bir hafta oldin vaksina oldim. Hech qanday zarari yo'q ekan. Faqat uch-to'rt kun ehtiyot bo'lasizlar. Osongina o'tib ketadi... – ular beixtiyor Asqar Jamolning yoniga yaqinlashishdi. – Aytganday, – davom etdi Rayhon bidillab, – ikki xil vaksina bor: Xitoy va Hindistonniki...

– O'zingiz qaysisidan oldingiz? – so'radi Asqar Jamol.

– Men Hindistonnikini oldim. Ikki dozalik. Xitoyniki uch doza... – batafsil javob berdi Rayhon. – Keyin sal-pal o'zlaringizni noqulay sezsangiz "Senepar" ichasiz!

Salomlashish insonlar o'rtasidagi muloqotni boshlovchi va munosabatni tartibga soluvchi vosita sifatida milliy va madaniy xususiyatlarga ega. Shu bilan birga, tibbiy muloqotning lingvistik va psixolingvistik jihatlariga oid tadqiqotlar soni kam bo'lib, salomlashishning aynan tibbiy kommunikativ muhitdagi kognopragmatik xususiyatlari alohida ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida yetarlicha o'rganilmagan. Bu esa mazkur





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

mavzuni o'rganishni nafaqat dolzarb, balki yangilikka ega bo'lgan ilmiy yo'nalish sifatida qarash imkonini beradi.

Tibbiy muloqotda salomlashishda shifokor va bemor (yoki uning yaqinlari) o'rtasidagi ilk muloqot faqat "Assalomu alaykum" bilan cheklanmay, uning ichida niyat (shifo berish), hurmat (ustoz deb murojaat) va rushan munosabat yaratish kabi kognitiv va pragmatik maqsadlar mujassam. Shifokorning "Alloh shifo bersin" degan so'zlari uning nutqidagi madaniy qadriyatlarni va bemorga nisbatan ruhiy qo'llab-quvvatlashni ifoda etadi. Bu ibora shifokorning vazifasi shunchaki davo berish emas, balki bemorning qalbiga umid ulashish ekanligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдукодирова, Шохиста, and Гули Тоирова. "Ramziy-majoziy ma'no asosida axborot yetkazish." in Library 1.1 (2024): 138-141.
2. Бахшиллоева, Гульнора, and Гули Тоирова. "Said ahmadning "qorako'z majnun" asarida o'zbek milliy urf-odatları." in Library 1.1 (2024): 166-169.
3. Khamroeva, Nafisa Nizomiddinovna. "THE IMPORTANCE OF COMPLIMENT IN THE NORMS OF SPEECH ETHICS." Scientific progress 2.7 (2021): 1213-1217.
4. Kendon A. A description of some human greetings. In R.P. Michael & J. H. Crook (Eds.). Comparative ecology and behaviour of primates / A.A. Kendon, A. Ferber // London: Academic Press, 1973. - 668 p.
5. Nizomiddinovna K. N. et al. PRAGMALINGUISTIC FEATURES OF THE TYPES OF FATIK COMMUNICATION AND ABOUT COMPLIMENTS //International Journal of Early Childhood Special Education. – 2022. – T. 14. – №. 3.
6. Nizomiddinovna H. N., Munisa P. LINGUISTIC AND CULTURAL FEATURES OF CREATING COMMUNICATIVE COMFORT IN DIALOGIC DISCOURSE //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL E-CONFERENCE" MODERN TENDENCIES OF DIGITAL EDUCATION AND WAYS OF IMPLEMENTING THEM IN THE EDUCATIONAL PROCESS"—Brno, Czech. – 2024. – T. 1. – C. 14-17.
7. Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. д-ра. ... дис. автореф. – Тошкент, 2000. – 20 б.
8. Расулов Қ. Ўзбек мулоқот хулқининг функционал хосланиши: Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008
9. Турдиева Ҳ. Нутқий этикет бирликларининг лингво прагматик тадқиқи (форс ва ўзбек тилларидаги материаллар асосида): Филол. фан. Бўйича фалсафа докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2020.– Б. 22.

